

IT-YO'NALISHI TALABALARIDA "AKADEMIK YOZUV" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RITORIK STRATEGIYALAR (HEDGING VA BOOSTERS MISOLIDA)

Tavaldiyeva Gulbaxar Nishanovna,

Toshkent kimyo-texnologiya institute dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ORCID: 0000-0001-8547-9636

E-mail: gulbahor_tavaldiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy o'quv yurtlarida "Akademik yozuv" fanini o'qitishning lingvodidaktik strategiyalari tadqiq etilgan. IT-yo'nalishi talabalari ingliz tilidagi texnik hujjatlar ta'siri ostida fikrni o'zbek tilida ifodalashda ritorik muvozanatni yo'qotishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida K.Xaylend nazariyasi asosida ishlab chiqilgan 3 bosqichli o'qitish modeli qo'llanildi. Statistika natijalar mazkur strategiya orqali tajriba guruhida qat'iylikni yumshatish vositalari (hedging) qo'llanishi 250% ga oshgani va ishonch markerlari (boosters) muvozanatlashganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: muallif ovozi, EAP, IT-talabalari, hedging, boosters, akademik yozuv, lingvodidaktika, ritorik strategiya.

Аннотация. В данной статье исследуются лингводидактические стратегии обучения предмету «Академическое письмо» в технических высших учебных заведениях. В ходе исследования была применена 3-этапная модель обучения, разработанная на основе теории К. Хайленда. Статистические результаты показали, что благодаря данной стратегии использование средств смягчения утверждений (hedging) в экспериментальной группе увеличилось на 250%, а маркеры уверенности (boosters) достигли оптимального баланса.

Ключевые слова: авторский голос, EAP, IT-студенты, hedging, boosters, академическое письмо, лингводидактика, риторическая стратегия.

Abstract. This article explores language didactics strategies for teaching "Academic Writing" in technical higher education institutions. A 3-step pedagogical framework based on Ken Hyland's theory was implemented during the study. Statistical results indicated that this strategy led to a 250% increase in the use of hedging devices in the experimental group, while confidence markers (boosters) achieved an optimal balance.

Keywords: authorial voice, EAP, IT students, hedging, boosters, academic writing, language didactics, rhetorical strategy.

Kirish. Bugungi global axborot makonida IT va AKT sohasi mutaxassislarining xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashuvi to'g'ridan-to'g'ri ularning akademik yozish ko'nikmalariga bog'liqdir. Biroq, texnika oliy o'quv yurtlarida "Akademik yozuv" fanini o'qitishda o'ziga xos lingvodidaktik muammolar kuzatilmoqda. IT-yo'nalishi talabalari ingliz tilidagi texnik hujjatlar, kod qo'llanmalari va algoritm tavsiflarining kuchli ta'siri ostida bo'lganliklari sababli, ilmiy matn yaratishda konstruksiyalarni o'zbek tilida ifodalashda ritorik muvozanatni yo'qotadilar.

Xorijiy lingvodidaktikada va EAP sohasidagi tadqiqotlarda "muallif ovozi" (Authorial Voice) deb ataladigan tushunchaga alohida e'tibor qaratiladi. "Muallif ovozi" bu - matnda muallifning shaxsiyati va pozitsiyasi sezilib turishidir. Har bir olim yoki talaba ilmiy ish yozayotganda o'z fikrini qanchalik qat'iy yoki ehtiyotkorlik bilan ifodalashi uning "mualliflik qiyofasi"ni belgilaydi. Tilshunos K.Xaylend ta'kidlashicha, lingvistik vositalar hamda ishonch markerlari (boosters) yoki qat'iylikni yumshatish

vositalari (*hedging*) ni tanlash tadqiqotchining akademik identifikatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi Muallif *boosters* va *hedging*ni ilmiy matndagi bir tanganing ikki tomoni sifatida ta'riflaydi: "Vaholanki, qat'iylikni yumshatish (*hedging*) va ishonch markerlari (*boosters*) muallifning mulohazaga nisbatan ishonch yoki shubhasini ifodalovchi metadiskursiv resurslardir"[1, b.52]. Agar talabalar faqat quruq faktlarga asoslangan texnik uslubdan foydalansalar, matnda shaxslararo ritorik funksiyalar yo'qoladi [3, b.246]. IT-yo'nalishi talabalari ingliz tilidagi texnik hujjatlar ta'sirida bo'lganliklari sababli, konstruksiyalarni o'zbek tiliga o'girishda ko'pincha ushbu muvozanatni yo'qotadilar. Ushbu tadqiqotning maqsadi - IT-yo'nalishi talabalarida *Hedging* va *Boosters* vositalari orqali "muallif ovozi"ni shakllantirishning samarali lingvodidaktik strategiyalarini ishlab chiqish ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Ilmiy dissurslarda "muallif ovozi" (*authorial voice*), shaxsiy identifikatsiya va akademik matnda muallif pozitsiyasining aks etishi jahon lingvodidaktikasida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu sohaning rivojlanishi va nazariy asoslarini xorijiy tadqiqotlar va o'zbek tilshunosligidagi izlanishlarga ajratish mumkin.

Akademik matnning sof impersonal, ya'ni shaxssiz emasligi, balki unda mualliflik madaniyati mavjudligi J.Swales tomonidan ilgari surilgan janr tahlili va ilmiy maqola yozish qoliplarida o'z aksini topgan [4]. Mazkur nazariyani metadiskurs darajasiga olib chiqqan olim K.Hyland hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida ilmiy matndagi pozitsiya va o'quvchi bilan muloqot vositalari tizimlashtirilgan. Xaylend akademik yozuvda fikrni ehtiyotkorlik bilan yumshoq ifodalash (*hedging*) va dalilning qat'iyligini ta'minlash (*boosters*) vositalari muallif qiyofasini belgilovchi asosiy ritorik vositalar ekanligini asoslab bergan.

Ikkinchi til sifatida ingliz tilida (ESL/L2) maqola yozuvchi talabalarning ritorik muammolari J.Flowerdew izlanishlarida ko'rib chiqilgan bo'lib, unda mualliflar matnda shaxslararo ritorik aloqadan ko'ra quruq faktlarga ko'proq suyanib qolishi isbotlangan.

O'zbekiston lingvodidaktikasida "Akademik yozuv" fanini o'qitish va oliy ta'limda raqamli texnologiyalar asrida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. O'zbek va ingliz tillaridagi akademik matnlarning qiyosiy-ritorik xususiyatlari, milliy akademik madaniyatning matn tuzilishiga ta'siri va talabalarning ilmiy yozuvda duch keladigan pragmatik qiyinchiliklari bo'yicha muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan IT va AKT yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi texnik hujjatlar ta'siri ostida shakllanadigan robotsimon va haddan tashqari quruq uslubini bartaraf etish, ularda o'zbek tilidagi ilmiy ishlarda *hedging* va *boosters* muvozanatini shakllantirishning aniq lingvodidaktik strategiyalari alohida tadqiqot sifatida deyarli o'rganilmagan. Ushbu mavjud ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi

IT-mutaxassislarining akademik yozuvidagi til me'yorlaridan og'ishish, me'yorning buzilishi holatini o'rganish va tasniflash uchun talabalarda so'rovnomalar o'tkazildi. Bunda Toshkent kimyo-texnologiya instituti eksperimental baza vazifasini bajardi. Tadqiqotda "Axborot tizimlari va texnologiyalari", "Sun'iy intellekt" va "Dasturiy injeneriya" yo'nalishlarida tahsil olayotgan 1 va 2-bosqich bakalavriat talabalari ishtirok etdi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Matnlar dekonstruksiya: Talabalar tomonidan ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va mustaqil yozilgan 50 ga yaqin ilmiy tezislarning tahlil qilindi.

Eksperimental o'qitish: Talabalar ikki guruhga ajratildi. Nazorat guruhiga an'anaviy akademik yozuv qoidalari o'tib borildi. Tajriba guruhiga esa K.Xaylend modeli asosida 3 bosqichli maxsus ritorik strategiyalar moduli (Identifikatsiya, Transformatsiya, Refleksiya) qo'llanildi.

Korpus tahlili: Talabalar matnidagi hedging (ehtimollik: *nazariy jihatdan, ko'rinadi, mumkin*) va boosters (qat'iylik: *albatta, aniqlandi, shubhasiz*) so'zlarining qo'llanilish darajasi statik o'rganildi.

Natijalar. Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatdiki, IT-talabalarining 75% i ilmiy matn yozishda ritorik vositalarni umuman ishlatmaydilar va matnni quruq texnik buyruqlar shaklida shakllantiradilar. Ular ko'pincha ingliz tilidagi texnik hujjatlarni, ya'ni kodlar qo'llanmasi, algoritm tavsiflarini ko'p o'qishadi. Texnik hujjatlarda esa his-tuyg'u bo'lmaydi, u yerda faqat buyruq va faktlar bo'ladi. Masalan: "A tugma bosilsa, B hodisa sodir bo'ladi" kabi. Talabalar mana shu quruq va keskin uslubga o'rganib qolishadi. Keyin o'z ilmiy ishlari yoki maqolalarini o'zbek tilida yozayotganlarida ingliz tilida tanishgan materiallari ta'sirida qolib, o'sha quruqlikni o'zbekcha matnga olib o'tishadi. Natijada ular yuqorida aytilgan muvozanatni yo'qotadilar - matnda "muallif ovozi" yo'qoladi, gaplar haddan tashqari robotsimon, keskin yoki jonsiz chiqib qoladi. Quyidagi 1-jadvalda ingliz va o'zbek tillari ilmiy uslubidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin:

| Xususiyat | Ingliz akademik uslubi (EAP) | An'anaviy o'zbek ilmiy uslubi | IT-talabalari-dagi muammo |
|-----------------------|---|---|---|
| Muallifning faolligi | Faol va ko'rinarli. Ilmiy jamiyat bilan muloqot qiladi. | Passiv va yashirin. Shaxssizlikka intiladi. | Inglizcha erkinlikni o'zbekchaga to'g'ri moslashtira olmaslik. |
| Olmoshlar qo'llanishi | "I argue", "We suggest" deb o'z fikrini ochiq aytadi. | "Bizningcha", "Tadqiqotchi fikricha" yoki umuman olmoshsiz. | O'zbekcha matnda "Men isbotladim" deb qo'pol va maqtanchoq uslub yaratib qo'yish. |
| Nisbat shakllari | Aniq nisbat (Active Voice) ko'p: "The data shows..." | Majhul nisbat (Passive Voice) ko'p: "Ma'lumotlar tahlil qilindi..." | Matnni haddan tashqari jonsiz, xuddi robot yozgandek qilib qo'yish. |

Bunda talabalar inglizcha texnik matnlarni o'zbekchaga o'g'irganda nafaqat soha terminlari, balki ikki tilning akademik madaniyati to'qnashuviga duch kelishadi.

Ingliz tilidagi EAP (Academic English) muallifga matnda o'z pozitsiyasini himoya qilish uchun katta erkinlik beradi. O'zbek ilmiy madaniyati esa an'anaviy ravishda

kamtarlik, shaxssizlik va faktlarni orqa planga qo'yishni talab qiladi. IT-talabasi inglizcha texnik qolipni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilganda, o'zbek ilmiy tilining mana shu nozik tabiatini buzib qo'yadi (yo juda keskin, yo haddan tashqari quruq matn paydo bo'ladi).


Oliy ta'limda xorijiy lingvodidaktika asosida IT-talabalariga o'z "akademik ovozi"ni topishni qanday o'rgatish mumkin? Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, talabalarda "muallif ovozi"ni shakllantirishda quyidagi usullar samara beradi:

Buning uchun talabalar ongiga K.Xaylend nazariyasidagi Boosters va Hedging vositalarini to'g'ri ishlatishni singdirish kerak. Bunda

1. Hedging (yumshatish)ni, ya'ni faktni taxmindan ajratishni o'rgatish kerak. Texnik OTM talabalari hamma narsani matematik fakt deb qabul qilishga o'rganishgan. Ilmiy ishda esa har doim xatolik ehtimoli bo'ladi. Talabaga fikrni yumshoqroq ifodalashni o'rgatish kerak.

"Ushbu algoritm tizim tezligini 20% ga oshiradi." (Agar boshqa kompyuterda ishlamasa,

 olim yolg'onchi bo'lib qoladi).

 "Tajriba natijalariga ko'ra, ushbu algoritm tizim tezligini o'rtacha 20% ga oshirishi kuzatildi." yoki "...oshirishi mumkin."

2. Boosters (ishonch markerlari)ni, ya'ni o'z natijasini himoya qilishni o'rgatish kerak. Agar talaba yangi dastur yaratgan bo'lsa va u chindan ham samarali bo'lsa, u kamtarlik qilib "balki yaxshidir" deyishi kerak emas. O'z yutug'ini qat'iy ko'rsata bilishi lozim.

 "Bu dastur xavfsizlikni biroz ta'minlasa kerak."

 "Aniqlangan dalillar ushbu dastur xavfsizlik tizimini tubdan yaxshilashini ko'rsatadi."

3. "Matnni dekonstruksiya qilish", ya'ni tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish.

Talabalarga tayyor inglizcha AKT maqolasi beriladi va undagi muallif o'z fikrini qaysi so'zlar bilan ifodalagani ranglar bilan belgilash topshiriladi. (Masalan: ko'k rang - fakt, qizil rang - muallifning shaxsiy munosabati). Bu metod talabada "muallif borligini his qilish" ko'nikmasini uyg'otadi.

Maxsus lingvodidaktik strategiyalar qo'llanilgandan so'ng, tajriba guruhidagi talabalarining akademik yozish ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

Hedging vositalarini qo'llash: Nazorat guruhida faktlarni mutlaqlashtirish (masalan, "Ushbu dastur 100% xatosiz ishlaydi") saqlanib qolgan bo'lsa, tajriba guruhida talabalarining 68% i o'z fikrlarini ilmiy yumshatish vositalari orqali ifodalashni boshladilar ("Olingan natijalarga ko'ra, tizim samaradorligi oshishi kuzatilishi mumkin").

Boosters vositalari bilan ishlash: Talabalar o'z ilmiy yangiliklarini himoya qilishda kamtarlik qobig'idan chiqib, mualliflik mavqeyini kuchaytiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'zlashtirdilar.

Tarjimadagi muvozanat: Ingliz tilidagi faol nisbatdagi konstruksiyalarni o‘zbek tili ilmiy uslubiga xos bo‘lgan shaxssiz, ammo muallif ovozi sezilib turadigan akademik muvozanatga o‘tkazish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 2.5 baravarga oshdi.

Pedagogik eksperiment yakunida nazorat va tajriba guruhlar talabalarining yakuniy ilmiy ishlari qayta tahlil qilindi. Har 10 000 so‘zga to‘g‘ri keladigan ritorik markerlar soni aniqlanib, quyidagi statistik jadval shakllantirildi:

1-jadval. Eksperimentdan so‘ng talabalar matnidagi ritorik markerlar chastotasi (10 000 so‘z hisobida)

| Ritorik vositalar turi | Nazorat guruhi (An’anaviy) | Tajriba guruhi (Ritorik strategiya) | O‘shish dinamikasi (%) |
|------------------------|----------------------------|-------------------------------------|-------------------------|
| Hedging (Yumshatish) | 14 ta | 49 ta | + 250% |
| Boosters (Qat’iylik) | 62 ta (noodatiy ko‘p) | 38 ta (muvozanatli) | - 38.7% (optimallashti) |
| Mualliflik olmoshlari | 8 ta | 26 ta | + 225% |

Jadvaldan ko‘rinishicha, tajriba guruhida faktlarni mutlaqlashtirishdan qochish va fikrni akademik yumshatish vositalari (hedging) orqali ifodalash 250% ga oshgan. Me'yordan ortiq va noo‘rin ishlatilgan qat’iylik markerlari (boosters) esa 38 taga tushib, akademik muvozanat ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, IT-yo‘nalishi talabalarida “muallif ovozi” o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. J.Flauerdyu ta’kidlaganidek, ikkinchi til ta’sirida bo‘lgan mualliflar shaxslararo muloqot madaniyatini matnga olib kirishda qiynaladilar [3, b.246]. Ko‘pchilik talabalar ilmiy matnda o‘z pozitsiyasini ko‘rsatishni “avtoritarlik” yoki maqtanchoqlik deb hisoblab, undan qasddan qochishga intiladilar [2, b.1094].

Biroq, “Akademik yozuv” darslarida ritorik strategiyalarni tizimli o‘qitish talabalarga tizimli fakt bilan akademik taxmin o‘rtasidagi chegarani anglashga yordam beradi. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan 3 bosqichli model texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarining nafaqat o‘zbek tilidagi, balki ingliz tilidagi (EAP) maqolalarining ritorik sifatini ham tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa muhandislik ta’limida lingvodidaktikaning rolini yangi bosqichga olib chiqadi

Xulosa. Texnika oliy o‘quv yurtlarida “Akademik yozuv” fanini o‘qitish shunchaki grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanmasligi kerak. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, IT-yo‘nalishi talabalarida ingliz tilidagi texnik hujjatlar ta’sirida shakllanadigan quruq, keskin yoki robotsimon uslubni bartaraf etishda ritorik strategiyalar eng samarali lingvodidaktik vosita hisoblanadi.

K.Xaylend nazariyasi asosida ishlab chiqilgan 3 bosqichli (Identifikatsiya, Transformatsiya va Refleksiya) o‘qitish modeli talabalarga ilmiy matnda o‘z pozitsiyasini - “muallif ovozi”ni to‘g‘ri namoyon qilish imkonini berdi. Statistik ma’lumotlar tajriba guruhida fikrni ehtiyotkorlik bilan ifodalash (hedging) 250% ga oshganini va noo‘rin qat’iylik markerlari (boosters) optimallashtirishini ko‘rsatdi. Bu esa bo‘lajak IT

mutaxassislarining xalqaro andozalarga mos keladigan, ritorik jihatdan muvozanatlashgan ilmiy matnlar yaratish ko'nikmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Tadqiqot natijalaridan texnika oliygozlarida akademik yozuv bo'yicha o'quv dasturlari va sillabuslarini takomillashtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hyland, K. (2005). *Metadiscourse: Exploring interaction in writing*. Continuum. (p. 52).
2. Hyland, K. (2002). Authority and invisibility: Authorial identity in academic writing. *Journal of Pragmatics*, 34(8), 1091–1112. (p. 1094).
3. Flowerdew, J. (1999). Problems in writing for scholarly publication in English: The case of Hong Kong. *Journal of Second Language Writing*, 8(3), 243–264. (p. 246).
4. Swales, J. M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge University Press.

